

**YOZUVCHI LISONIY SHAXSINING VOQELANISHIDA – INDIVIDUAL USLUB****Saatova Surayyo Ismailovna****O'zbekiston Milliy universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrası o'qituvchisi, PhD****Ergashova Gulshirin Azamat qizi****O'zMU Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15600673>**

Lisoniy shaxs til imkoniyatlaridan to'liq foydalanuvchi, lisoniy bilimini amalda nutqi orqali namoyon eta oluvchi, tilga ta'sirini o'tkazuvchi shaxsdir. Rus tilshunosi Y.N.Karaulov "Har qanday matn ortida lisoniy tizimlarni egallagan shaxs turadi", – deya ta'kidlaydi. Badiiy matn boshqa matn turlaridan imkoniyatining kengligi bilan ajralib turadi. Yozuvchining ijodiy mahsuli bo'lmish badiiy matn til va shaxs munosabatlarini o'rganishdagi asosiy manba bo'lib, unda shaxsning, ya'ni yozuvchining lisoniy bilimi, salohiyati, so'z qo'llash mahorati, olamni anglashi va uni ifodalashi yaqqol namoyon bo'ladi. Lisoniy shaxs tushunchasiga D.Niyazova "Badiiy matnda lisoniy shaxs tiplari" deb nomlangan dissertatsiyasida "*Lisoniy shaxs* nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi, tildan foydalanish jarayonida unga o'z shaxsiy sifatleri bilan ta'sir ko'rsatuvchi, jamiyatda shakllangan milliy-madaniy qarashlarni tilda namoyon etuvchi shaxsdir", – deya baholaydi. Albatta, lisoniy shaxsga xos bu xususiyatlar, avvalo, badiiy matnda namoyon bo'ladi. Yozuvchi matn yaratar ekan, ma'lum xalqqa xos milliy-madaniy qarashlarni ham, shaxsiyatga xos bo'lgan sifatleri ham personajlar nutqi orqali matnda ifodalaydi. Demak, har bir badiiy matnda, avvalo, o'sha matnni yaratgan yozuvchi lisoniy shaxsi yotadi. Yozuvchilar personajlarini jonli va hayotiy chiqishi uchun ularning nutqidagi til vositalarni va xatti-harakatlarini individual xarakter xususiyatlariga, ya'ni biologik-fiziologik jihatleri, patologik belgilari, ruhiyati, kasbi, jamiyatdagi roli va maqomi, qiziqishlari, dunyoqarashi, salohiyati, saviyasi va boshqa holatlarga muvofiq yaratadi. Shuningdek, muallif personajlarning jonli chiqishida ular nutqida jamiyatdagi mavqeyi va rolga munosib til birliklarini tanlay olishi ham muhimdir. Zero, X.Yo'ldasheva ta'kidlaganidek, "Badiiy asarlar matnda personajlarning ijtimoiy mavqeyi va rolini aniq tasvirlash muhim ahamiyatga ega. Yozuvchi personajlarining individual qiyofasini gavdalandirishda ularning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi va roldan kelib chiqib yondashadi. Asarda personajlar nutqi ularning ijtimoiy roli va mavqeyiga muvofiq tarzda shakllantiriladi". Demak, yozuvchining mahorati turli his-tuyg'ularga ega qahramonlarning lisoniy shaxsini shakllantira olishida, ularning o'ziga xosligini ko'rsatib bera olishida ko'rinadi. Darhaqiqat, har bir mohir yozuvchi personajlarni shakllantirayotganida ularning nutqidagi birliklarni individual xususiyatlariga munosib ehtiyotkorona tanlaydi. Badiiy matn yozuvchi va shoirlarning olam haqidagi bilimlarini yaqqol ko'rsata oladi. Badiiy matnni tahlil qilishda yozuvchi shaxsini hisobga olish, lisoniy birliklarning matnda bajargan vazifasini tahlil qilish muhim. Yozuvchi qo'llagan lingvistik birliklarni, personajlar nutqini tahlil qilish bilan yozuvchining lisoniy shaxsini belgilash mumkin. Yozuvchi lisoniy shaxsini aniqlashda, avvalo, uning individual tili (idiolekti) va individual uslubi (idiostili)ga murojaat etiladi. M.Umurzoqova ham "Muallif lisoniy shaxsining tadqiqi uning til birliklarini aktuallashtirish mahorati, olamning lisoniy manzarasini o'ziga xos uslub va bo'yoqlarda berishi haqida tasavvur paydo qiladi, shuningdek, uning idiouslubi haqida axborot tashiydi" deb yozadi. Shu asosda lisoniy shaxs tushunchasi bilan birga idiolekt hamda idiostil tushunchalari ham kirib kelgan. Demak, yozuvchining individual tili va uslubi uning lisoniy shaxsini belgilashdagi eng asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Yozuvchi lisoniy shaxsining o'ziga xosligini belgilovchi individual tili va uslubida bevosita asarlarining lingvopoetikasiga tahlilga tortiladi. Masalan, metaforalar

yoʻzuvchining olamni qay darajada idrok etishi, obrazli fikrlash uslubi, tasavvur va tafakkur dunyosi, olamni qanday anglashining oʻziga xosligini koʻrsatadi. Yosh J.Jovliyev asarlaridagi metaforalarning eʼtiborli jihati, shundaki, oʻziga xos sintaktik qurilishga ega. *“Musofirlik toʻni, gʻariblik kavushi – yozin-qishin kiyiladigan boʻldi”*. *“Soʻraydiganim yuq”*, - deb darsga ham bormay qoʻyaverardim. Ammo koʻnglim yetim qoʻzi edi. (J.Jovliyev. “Qoʻrqma”) Muallif asarlarida oʻxshatishning ham oʻziga koʻrinishlari uchraydi: *“Momomning qornida yotib, uning koʻz yoshlarini artaman, oppoq sochlarini silayman, shu yerda mudrayman, sagʻir qoʻy qurigan saksovul soyasiga oʻzini urganday”*. Har bir ijodkorning oʻziga xos uslubi tilda mavjud leksemalarni oʻz maʼnosidan tashqari boshqa yangi maʼnolarda qoʻllay olishida, yani nutqiy okkozionallar yarata olishida ham koʻrinadi. *“Uning koʻzlari muzlagandi”*. Bu yerda muzlagandi soʻzi odatda holatni kuchliroq va obrazliroq tasvirlash uchun ishlatilgan. Garchi muzlamoq feʼli mavjud boʻlsa-da, *muzlagandi* soʻzi koʻproq hissiy va ekspressiv boʻyoqqa ega. Bu soʻzning qoʻllanilishi koʻzlardagi sovuqlikni, hissizlikni taʼkidlashga xizmat qilyapti. Yoki *“Butun mamlakatda ishsizlik semirmoqda”* bu oʻrinda koʻpaymoqda maʼnosini beruvchi semirmoqda soʻzi ham alohida uslubiy vazifa bajargan. Okkozional soʻzlar yoʻzuvchining haqiqiy yaratuvchilik qobiliyatini koʻrsatuvchi nutqiy hodisadir. J.Jovliyev asarlarida anaforalar ham uslubiy vazifa bajaradi. Anafora – bir xil soʻz yoki jumlaning gap boshida takrorlanishi. Bu usul nutqqa taʼsirchanlik, ritmik beradi va muayyan gʻoyani taʼkidlash uchun xizmat qiladi. *“Men qoʻrqmayman, men kurashaman, men gʻalaba qozonaman”* – qahramonning qatʼiy niyati, ishonchi, *“Umid bor, ishonch bor, sevgi bor”* – umid, ishonch va sevgi uchligining ahamiyati anafora orqali kuchaytirilgan. *“Vatan uchun, xalq uchun, kelajak uchun kurashamiz”* – maqsadlar anafora orqali tartiblangan va urgʻu berilgan. Alliteratsiya – bir xil undosh tovushlarning soʻzlarda takrorlanishi. Bu usul nutqqa ohangdorlik, joziba beradi. J.Jovliyev asarlarida bu holat ham koʻplab uchraydi. *“Sokin suhbat sari sayr qildik”* – “S” tovushining takrorlanishi nutqqa ohangdorlik beradi. *“Qalbimda qaygʻu, qalbimda quvonch”* – “Q” tovushining takrorlanishi ziddiyatni kuchaytiradi. J.Jovliyevning asarlari tiliga ahamiyat qaratilganda parsellyat (boʻlaklangan) birliklar alohida ahamiyat kasb etadi. Parsellyatsiya – bu gapni bir nechta qismlarga boʻlish, ularni vergul, tire yoki nuqta bilan ajratish orqali taʼsirchanlikni oshirish usuli. Bu usul nutqqa musiqiylik beradi, ohangdorlikni kuchaytiradi, maʼnoni taʼkidlaydi va oʻquvchining eʼtiborini jalb qiladi. Asarlarida parsellyatsiya turli maqsadlarda ishlatiladi. Masalan, hissiyotni kuchaytirish, gʻazabni, sevgini, sogʻincni, qoʻrquv va turli holatlarni kitobxonga taʼsirchan ifodalashda: *“Men qoʻrqdim... Juda qoʻrqdim... Oʻlimdan ham qoʻrqdim”*. *“U keldi. Birdan. Kutilmaganda”*, *“Men jim qoldim. Soʻzsiz. Hech nima demadim”*, *“Bu – haqiqat... Achchiq haqiqat...”*, *“Sogʻindim... Seni... Juda sogʻindim...”* Ushbu holatlar yoʻzuvchining oʻziga xos uslubi bilan birga asarning yengil oʻqilishiga ham xizmat qiladi.

Sh.Qalandarovning taʼkidlashicha, “Adib personajlarini matnda jonli til sohiblariga tenglashtira olsagina, ularni lisoniy shaxs deyish mumkin”.

– *Mana bu qoʻylarning ham tarixi bormi?*

– *Bor, bolam.*

– *Oʻtirik gapirmang!*

– *Qoʻylarning tarixi qoʻylik, qullik...*

– *Qanday qilib qoʻyda tarix boʻladi, bobo? Axir ular hayvon-ku!* (J.Jovliyev. “Qoʻrqma”) Bu oʻrinda *oʻtirik* yolgʻon maʼnosida qoʻllangan boʻlib, bunday leksik birliklar yoʻzuvchi lisoniy shaxsini belgilashda uning oʻziga xos idiolektini koʻrsatishda muhim vosita boʻlib xizmat qilgan.

Shuningdek, shu birgina bobo va nabiraning dialogidan asar tilining naqadar jonli va hayotiylikni sezish mumkin.

J.Jovliyevning o'ziga xos lisoniy shaxsini ko'rsatadigan jihatlardan yana biri bu asarlarida sarkazm va ironiyaning juda ko'p uchrashidir. Yozuvchi bu usullardan jamiyatdagi illatlarni tanqid qilish, qahramonlarning ichki dunyosini ochib berish va asarga o'ziga xos joziba berish uchun foydalanadi:

Sarkazm – achchiq, kinoyali istehzo bo'lib, u ochiqchasiga tanqidni ifodalaydi, muammolarni ko'rsatish uchun ishlatiladi. J.Jovliyev asarlarida ijtimoiy tanqidlar ham uchraydi. *“Bizda hamma narsa yaxshi. Faqat yaxshi narsalar yaxshi emas, xolos”*. Bu gapda yozuvchi jamiyatdagi muammolarni yashirishga urinishni sarkazm orqali fosh qiladi. *“Ular xalq uchun jon kuydiradi. O'z cho'ntaklari uchun ko'proq”*. Bu amaldorlarning korrupsiyalashganligini, xalq manfaatlarini o'ylamasligini ochiqchasiga tanqid qiladi. *“Bizda eng zo'r ta'lim. Faqat bilim beradigan odam yo'q”*. Bu ta'lim tizimidagi muammolarni, sifatning pastligini sarkazm bilan ko'rsatadi. *“Agar hammamiz qo'rqmasak, qanday qilib bu dunyoda tartib bo'ladi?”* (J.Jovliyev. “Qo'rqma”) Bu yerda *tartib* so'zi ostida aslida adolatsizlik, zo'ravonlik va zulm yashiringan. Sarkazm orqali bu holatga qarshi norozilik ifodalanadi.

Ironiya – so'zning teskari ma'noda ishlatilishi. Ya'ni, aytilgan gapning maqsadi aslida uning aksini bildirishdir. U sarkazmga qaraganda yumshoqroq va yashirinroq tanqidni ifodalaydi. Qahramon xarakterini ochish: bir qahramonning boshqa bir qahramonni maqtab, aslida uni pastga urushi ironiya hisoblanadi: *“U juda aqlli. Shuning uchun hech kim uni tushunmaydi”* jumlasini orqali aqlli odamning jamiyatda o'z o'rnini topa olmasligiga ishora qiladi. Voqelikni tasvirlash: biror voqea yuz berayotganda, qahramonning ichki fikrlari bilan voqelik o'rtasida ziddiyat bo'lsa, ironiya yuzaga keladi: *“Hamma xursand edi. Faqat men yig'lagim kelardi”* jumlasini voqelikning qahramonga ta'sirini ochib beradi. Adolatsizlikni ko'rsatish: *“Qonun hamma uchun teng. Faqat ba'zilar uchun tengroq”*. Bu jumla qonunning amalda ba'zan amaldorlar tomonidan buzilishi, adolatli ishlamasligini, ba'zi odamlarga imtiyoz berilishini ironiya bilan tanqid qiladi.

J. Jovliyevning lisoniy shaxsi yoki lingvistik individualligi tilining boyligida, obrazlilikida, asarlarida ohangdorlik va ichki musiqiylik kuchli, badiiy ifoda vositalaridan mohirona foydalanishida ko'rinadi. Muallif sodda uslub orqali murakkab falsafiy mushohadaga chorlaydi. Uning personajlari nutqida milliy ruh, o'zbek xalqining qadriyatlari, urf-odatlar va milliy tafakkuri aks etadi. Yozuvchi o'zbekona dunyoqarashni ifodalaydigan xalqona paremalardan keng foydalanadi. Umuman olganda, J. Jovliyev asarlarida yozuvchi lisoniy shaxsiyati o'zbek tilining boy ifoda imkoniyatlarini samarali tarzda ishlata oladigan, o'ziga xos til va uslubga ega bo'lgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

### References:

#### Используемая литература:

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Караулов Ю.Н. Русская языковая личность и задача её изучения // Язык и личность. – М.: Наука, 1989. – С. 3-8.
2. Ниязова Д. Бадий матнда лисоний шахс типлари: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. автореф. – Қарши, 2020. – В. 21.

3. Қаландаров Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс. – Фарғона, 2019. – Б. 109.
4. Saatova S. O'zbek tilida lisoniy shaxs shakllanishining ijtimoiy omillari. Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2025. – 59 b.
5. Umurzoqova M. Badiiy matnda lisoniy shaxs voqelanishining sotsiopragmatik va lingvomadaniy aspekti: Filol. fan. dok. (DSc)... diss. – Toshkent, 2024. – B. 23.
6. Yo'ldasheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol. fan. dok. (DSc)... diss. – Qarshi, 2023. – B. 133.

INNOVATIVE  
ACADEMY